

## HARBIY XIZMATCHILARINI KIYIM-KECHAK MULKLARI BILAN TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurdashov B.S.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,  
magistratura tinglovchisi

**ANNOTATSIYA:** O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarini kiyim-kechak moddiy vositalari bilan ta'minlashning maqsadi harbiy xizmatchilarini jangovar va maxsus vazifalarni bajarish uchun sharoit yaratishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari moddiy ta'minot vositalari bilan ta'minlash, ilmiy tizimda istiqbolli rejalashtirish, ilmiy me'yorlashtirish va moddiy resurslarni markazlashgan tartibda tarqatishga asoslangan. Qo'shinlarning front orti ta'minoti jangovar harakatlarning muvaffaqiyatli olib borishda asosiy rol sanaladi. Qo'shilma va harbiy qismlarning jangovar qobiliyati ularning moddiy ta'minot vositalari bilan o'z vaqtida va to'liq ta'minlanganligiga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** Kiyim-kechak, ta'minot, qurolli kuchlar, harbiy xizmatchi, hisobot-talabnoma, rejali ta'minot, amalga oshirish, tashkillashtirish, rejalashtirish, yuqori qo'mondonlik.

**АННОТАЦИЯ:** Целью обеспечения Вооруженных Сил Республики Узбекистан вещевыми и материальными средствами является создание условий для выполнения военнослужащими боевых и специальных задач. Вооруженные Силы Республики Узбекистан базируются на обеспечении материального снабжения, перспективном планировании в научной системе, научной стандартизации и централизованном распределении материальных ресурсов. Фронтное обеспечение войск играет ключевую роль в успешном ведении боевых действий. Боеспособность соединений и воинских частей зависит от своевременного и полного снабжения их материальными запасами.

**Ключевые слова:** Одежда, снабжение, вооруженные силы, военнослужащий, рапорт-заявка, плановое снабжение, реализация, организация, планирование, высшее командование.

**ANNOTATION:** The purpose of providing the armed forces of the Republic of Uzbekistan with clothing and material means is to create conditions for military personnel to perform combat and special tasks. The Armed Forces of the Republic of Uzbekistan are based on the provision of material supplies, forward-looking planning in the scientific system, scientific standardization and centralized distribution of material resources. Front-line support of troops plays a key role in the successful conduct of military operations. The combat ability of joint and military units depends on their timely and complete supply of material supplies.

**Key words:** Clothing, supply, armed forces, serviceman, report-requisition, planned supply, implementation, organization, planning, high command.

Qurolli kuchlarning jangovar qobiliyati ularning moddiy ta'minot vositalari bilan ta'minlanganligiga bog'liq bo'lib bunda kiyim-kechak ta'minoti muhim ahamiyatga yega hisoblanadi. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari zamonaviy kiyim-kechaklar bilan amaldagi me'yoriy xujjatlar asosida ta'minlanib kelinmoqda Qurolli kuchlarda quydagi kiyim-kechak bilan ta'minlash kuyidagi vazifalarni uz ichiga olad:

a) ta'minlash:

formali ust-boshlar bilan;

farklovchi nishonlar, ichki kiyimlar, poyabzallar, anjomlar, kulkoplar, maxsus ust-boshlar, issik kiyimlar, yotok anjomlari va sanitar-xujalik buyumlari, dekorativ matolar va gilam maxsulotlari, sport kiyimlari (sport jixozlaridan tashkari), lager va maxsus chodirlar bilan;

kiyim-kechak xizmati buyicha xisob va xisobot kitoblari, shuningdek, tegishli boshkaruv xujjatlar asosida kiyim-kechak xizmati zimmasiga yuklatilgan boshka blanka va kitoblar bilan;

b) xammom-kirxona korxonalarini texnik vositalar, jixozlar va extiyot kismlar bilan

ta'minlash, shuningdek, ularni ta'mirlashni amalga oshirish;

v) shaxeiy tarkibga xammom-kirxona xizmatini kursatish va sovun ta'minotini, shuningdek, kiyim-kechaklarni ta'mirlash va kimyoviy tozalash ishlarini tashkillashtirish;

g) kiyim-kechak zaxiralarini tashkil kilish va saklash;

d) O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar vazirlik va idoralarni smetalarning kiyim-kechak xizmati moddalari buyicha belgilangan xisobotlarni tuzish va takdim kilish, moliyaviy rejalashtirish va moliyalashtirish;

ye) kiyim-kechak xizmati buyicha xisob va xisobotlar yuritishni tashkillashtirish;

j) kiyim-kechak xizmati buyicha moddiy va pul vositalarining sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish<sup>1</sup>.

Kiyim-kechaklar maqsadli ishlatilishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

-joriy ta'minlash uchun mo'ljalangan;

-yig'in ta'minlash fondi;

-teginilmaydigan zaxira;

-safarbarlik chaqiruvi rezervi buyumlari.

Qo'shnlarning front orti (ichkari) ta'minoti jangovar harakatlarning muvafaqqiyatli olib borishda asosiy rol o'ynaydi. Qo'shilma va harbiy qismlarning jangovar qobiliyati ularning moddiy ta'minot vositalari bilan vaqtida va to'liq ta'minlanganligiga bog'liq<sup>2</sup>. O'zbekiston Respublikasi Qurolli-kuchlarda kiyim-kechak ta'minoti markazlashgan tartibda amalga oshiriladi.

Harbiy qismlarda kiyim-kechak ta'minotini harbiy qism kiyim-kechak xizmati boshlig'i tomonidan tashkillashtiradi hamda ushbu sohani amalga oshirish bo'yicha bevosita javobgar sanaladi.

Qurolli kuchlarda harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak moddiy vositalari bilna ta'minlash maqsadida kiyim-kechak hisobot talabnomalar shakillantiriladi

va ular yuqori qo'mondonlikga yoki ta'minot organlariga yuboriladi.

Kiyim-kechak hisobot talabnomalarni shakillantirishda quydagi asosiy omillarga etbor qaratilishi lozim.

1. Harbiy qism kiyim-kechak omborlaridagi kiyim-kechak moddiy vositalar qoldig'iga;

2. Harbiy qismning shtat birligidagi harbiy xizmatchilar soniga;

3. Hozirgi kundagi harbiy xizmtchilarni harbiy unvoni va jinsiga

4. Harbiy qismning kiyim-kechak moddiy vositalariga bo'lgan yehtiyoj.

5. Kegusi yilda kutilayotgan jarngavor tayyorgarlik va shaylik rejalaridagi mashg'ulotlar turlariga.

Kiyim-kechak ta'minoti hisobot-talabnomalari pastdan yuqoriga qarab bir yilda bir marta Vazirlik idoralarni buyruqlariga asosan amalga oshiriladi.

Yani, bo'linma-harbiy qism-birlashmalar-qushilma-vazirlik va idoralarning ta'minot boshqarmalari. Ushbu hisobot talabnomalar ikki nusxada qism kiyim-kechak xizmati tomonidan tuziladi va kism komandirining birinchi o'rinbosari shtab boshlig'i, harbiy qism komandirining ta'minot bo'yicha o'rinbosarlari bilan kelishiladi hamda harbiy qism komandiri tomonidan tasdiqlanadi. Kiyim-kechak hisobot-talabnomalar ta'minot meyorlari tarkibiy tuzilish va tabel vedomostlari asosida tuziladi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги кушинларини тинчлик даврида кийим-кечаклар билан таъминлаш тартиби тугрисидаги 500-сонли буйруг'и

<sup>2</sup>Oliy harbiy ta'lim muassasalari, serjantlar tayèrlash maktabi kursantlari va kiyim-kechak xizmati kichik mutaxassislari uchun kiyim-kechak ta'minoti asoslari bo'yicha o'quv qo'llanma. 2012 yil Samarqand OHAQMBYu kiyim-kechak ta'minoti kafedrasi katta o'qituvchisi podpolkovnik A.P. Murodov tomonidan , 2012

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги кушинларини тинчлик даврида кийим-кечаклар билан таъминлашни ташкиллаштириш тугрисида 2021-йил 28-июн кундаги 500-сонли буйруг'и.

Ushbu hisobot talabnomallarning ikki nusxalari ham yuqori qo‘mondonlikka kelishish maqsadida yuboriladi kelishilgandan so‘ng ikkinchi nusxasi harbiy qismga qaytariladi.

Yillik hisobot talabnomalariga asosan Vazirliklar miqyosida kiyim-kechaklar smetasi shakillantiriladi hamda kiyim-kechaklarni sotib olish uchun Respublka budjetidan pul mablag‘lari ajratiladi. Ajratilgan pul mablag‘lari hisobidan kiyim-kechak mulklari belgilangan tartibdan taminotchi organlar tomonidan harid qilinib markaziy bazalarga joylashtiriladi.

Harbiy qismlarni kiyim-kechak mulklari bilan ta‘minlash maqsadida yuqori qo‘mondonlik yoki taminotchi organlar tomonidan ta‘minoti rejasiga tuziladi. Ushbu ta‘minot rejasiga asosan harbiy qism va bo‘linmalar hisobot talabnomalarida ko‘rsatilgan kiyim-kechak mulklari bilan ta‘minlanadi. Qurolli kuchlar harbiy qism va bo‘linmalari orqali harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak moddiy vositalari bilan ta‘minlash, yillik kiyim-kechak ta‘minoti rejasiga asosan markazlashgan tartibda amalga oshiriladi. Ta‘minot rejalarida, kiyim-kechaklarni teginilmaydigan zaxirasini ushlab turish ko‘zda tutiladi.

Taminot rejalariga asosan harbiy xizmatchilarni kiyim-kechak mulklari bilan ta‘minlash yiliga ikki bosqichda amalga oshiriladi.

1. Yozgi reja bo‘yicha aprel holatiga;
2. Qishgi reja bo‘yicha oktyabir holatiga amalga oshirilishiriladi.

Yozgi, qishki va mavsumiy kiyim rusumiga o‘tish, shuningdek kiyim-kechak rusumini kiyishning boshlanishi va tugatilishi garnizon boshliqlarining buyrug‘i bilan belgilanadi<sup>4</sup>.

Kiyim-kechak olish uchun navbatdan tashqari talabnomalar faqat, oldindan rejalarda ko‘zda tutilmagan tashkiliy tadbirlarni ta‘minlash uchun, tabiiy ofat natijasida yo‘q bo‘lgan buyumlarni o‘rnini qoplash uchun, hamda harbiy qismlarni ko‘chirish (qayta joylashtirish) va boshqa holatlarda, kiyim-kechaklar bilan ta‘minlash kerak bo‘lgan tadbirlarni ta‘minlash uchun taqdim etiladi<sup>5</sup>

Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida PQ-4447-son qaroriga asosan xizmatdan zaxsraga bo‘shatilganda ta‘minlanmagan kiyim-kechaklar uchun pul kompensatsiyasi to‘lanishi mumkun.

Qurolli kuchlarni kiyim-kechak mulklari bilan ta‘minlash Vazirlik va idoralarning moddiy ta‘minot boshqarmalari orqali harbiy qism va bo‘linmalar yesa kiyim-kechak xizmati orqali quyidagi ketma-ketlikda bo‘yicha amalga oshiriladi:

Markaziy bazasi – qo‘shilma – harbiy qism – bo‘linma – harbiy xizmatchi (xodim).

Kiyim-kechaklar Qurolli kuchlar Vazirlik va Idoralar shaxsiy tarkibiga amaldagi meyoriy xujjatlarda belgilangan me‘yorlar asosida ta‘minlanadi.

Shaxsiy tarkibni kiyim-kechak mulklari bilan taminlash ta‘minot me‘yorlari va kiyish (foydalanish) muddati haqida kiyim-kechak ta‘minoti xizmatining qayd etish ma‘lumotlariga ko‘ra belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlari asos bo‘ladi<sup>6</sup>.

Kiyim-kechaklarni muddatlaridan oldin berish va belgilangan me‘erlardan, tabellardan, shtatlardan ortiqcha sarflash taqiqlanadi. Kiyim-kechaklarni muddatidan oldin berilishiga e‘ki belgilangan me‘erlardan ortiqcha sarflanishiga yo‘l qo‘yigan shaxslar qonunlarda ko‘zda tutilgan javobgarlikga tortiladilar.

Harbiy xizmatchilarga farqli belgilarni berish, ushbu farqli belgilarni qaysi formali ust-bosh bilan taqilishi kerak bo‘lsa, o‘sha formali ust - boshlar bilan birgalikda beriladi hamda ushbu formali -ust

---

<sup>4</sup>O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining “Harbiy kiyim-kechakda yurish QOIDALARI” to‘g‘risidagi 2021 yil 11 dekabirdagi 1040-sonli buyrug‘i

<sup>5</sup>O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 1 mart 2008 yilgi 140 sonli buyrug‘i: Mudofaa Vazirligi harbiy xizmatchilarining tinchlik davrida kiyim kechaklar bilan ta‘minlashning Vaqtinchalik xolatini (tartib qoidalarini) tasdiqlash va amalga kiritish xaqida

<sup>6</sup>O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2019 yil 22-avgust kunidagi Ichki ishlar organlari xodimlarini, harbiy xizmatchilarni hamda ta‘lim muassasalari kursantlarini kiyim-kechak mulk(buyum)lari bilan ta‘minlash tartib qoidalarini 247-sonli buyrug‘iga

boshlarni to'plami sanaladi. Harbiy xizmatchilar qaysi xarbiy qism ro'yxatida tursa yoki ta'minotga qo'yilgan bo'lsa o'sha yerdan kiyim-kechaklar bilan ta'minlanadilar.<sup>7</sup>

Ofitser, serjant va oddiy askar lavozimida shartnoma bo'yicha xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilar kiyim-kechaklar bilan bevosita harbiy qism kiyim-kechak xizmati tomonidan ta'minlanadilar, muddatli harbiy xizmatchilar esa bo'linmalar orqali taminlanadilar.

Generallar tarkibi kiyim-kechaklar bilan bevosita Vazirlik front orti ta'minoti bosh boshqarmasining kiyim-kechak ta'minoti boshqarmasi tomonidan ta'minlanadilar. General-mayor unvoni berilganda, ofitserlik buyumlarini qachon berilganligidan qat'iy nazar, yangi buyumlar beriladi<sup>8</sup>.

Kiyim-kechaklardan foydalanish xukukiga kura quyidagi turlarga bulinadi:

shaxsiy foydalanish beriladigan kiyim-kechaklar;

inventar yaniy vaqtinchalik foydalanish beriladigan kiyim-kechaklar.

Xarbiy xizmatni kontrakt buyicha utayotgan xarbiy xizmatchilarga shaxsiy extiyojlari uchun beriladigan kiyim-kechaklar ular tomonidan kabul kilib olgan vaktdan boshlab shaxsiy mulk xisoblanadi. Xarbiy xizmatchilar tomonidan kiyim-kechaklar yukotilganda yoki yaroqsiz holatga keltirilganda, ular tomonidan zarar undirilmaydi.

Inventar kiyim-kechaklar xarbiy kismning mulki xisoblanadi va xarbiy xizmatchilarga vaktinchalik foydalanish uchun beriladi. Inventar kiyim-kechaklar bo'linma tarkibida yoki yakka tartibda berilishi mumkun.

Rezervga yoki zaxiraga bushatilayotgan xarbiy xizmatchilarga avval berilgan barcha inventar buyumlar xarbiy kiem kiyim-kechak omboriga topshirilishi shart.

Harbiy xizmatchilarning ehtiyotsizligi oqibatida foydalanishga yukotilgan yoki yaroqsiz holga keltirilgan inventar buyumlarning kiyimati ayibdor (javobgar) xarbiy xizmatchilardan davlatga etkazgan zararlarni koplash tugrisidagi me'yoriy-xukukiy xujjatlarga asosan undiriladi<sup>9</sup>.

Ofiserlar tarkibi fuqarolik oliy ta'lim mussasalari harbiy kafedrasiga tayinlanganlarida, hamda xo'jalik hisobidagi korxonalar va tashkilotlarda harbiy xizmatni o'taydiganlar, kiyim-kechaklarni bepul, umumiy tartibda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari vazirlik va idoralar smetasi va fondlari hisobidan oladilar.

Rezervdagi generallar va ofiserlar (zaxiradagi, iste'fodagi), maktab va boshqa umumta'lim muassasalarida boshlang'ich harbiy ta'lim bo'yicha harbiy rahbar, instruktor va uslubchi (boshlang'ich harbiy ta'lim bo'yicha) lavozimida ishlovchilar formali ust boshlar bilan, pulli (to'lov asosida) ta'minlanadilar<sup>10</sup>.

Kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar bir vazirlikdan boshqa bir vazirlikka o'z xizmatini davom ettirish uchun kelgan xodimlar va shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarning avval berilgan rang jihatdan va tikilishi (shakl) farq qilmaydigan ayrim kiyim-kechaklari ta'minot hisobiga o'tadi. Rang jihatdan farqlanuvchi kiyim-kechaklar hisobga olinmaydi hamda ularning o'rniga qoidaning tegishli me'yorlariga asosan olish xuquqi paydo bo'lgandan boshlab kiyim-kechaklar va unvonga mos tarzda pogonlar va alohida farqlovchi belgilar bilan ta'minlanadi va hisobga olinadi<sup>11</sup>.

Boshqa vazirlik va tashkilotlarga qarashli harbiy qismlarga va harbiy xizmatchilarga kiyim-kechaklar O'zbekiston Respublikasi Vazirining ruxsati bilan to'lov asosida beriladi.

<sup>7</sup>O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi kushinlarini tinchlik davrida kiyim-kechaklar bilan ta'minlashni tashkillashtirish tugrisida 2021-yil 28-iyun kunidagi 500-sonli buyrug'i.

<sup>8</sup>O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi kushinlarini tinchlik davrida kiyim-kechaklar bilanta'minlashni tashkillashtirish tugrisida 2021-yil 28-iyun kunidagi 500-sonli buyrug'i.

<sup>9</sup>O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2019 yil 22-avgust kunidagi Ichki ishlar organlari xodimlarini, harbiy xizmatchilarni hamda ta'lim muassasalari kursantlarini kiyim-kechak mulk(buyum)lari bilan ta'minlash tartib qoidalari 247-sonli buyrug'iga

<sup>10</sup>“harbiy ta'minot va harbiy xo'jalik”

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2019 yil 22-avgust kunidagi Ichki ishlar organlari xodimlarini, harbiy xizmatchilarni hamda ta'lim muassasalari kursantlarini kiyim-kechak mulk(buyum)lari bilan ta'minlash tartib qoidalari 247-sonli buyrug'iga

Harbiy xizmatchilarni kiyim-kechaklarga bo'lgan ehtiyojlari qondirilmaganligi xaqidagi ariza va shikoyatlari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari intizom nizomida belgilangan tartibda hisobga olinadi, ko'rib chiqiladi va hal qilinadi

Xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq Qurolli kuchlar safida xizmat qilayotgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar rezervga yoki iste'foga bo'shatilganda quyidagi asoslarga ko'ra hisob-kitob amalga oshiriladi. Ularga belgilangan ta'minot me'yorlari bo'yicha ta'minlanmagan kiyim-kechaklari o'rniga kiyim-kechakni olish huquqi paydo bo'lgandan bo'shatilish kuniga qadar to'liq oylar hisobga olinadi) bo'lgan davr uchun proporsional holatda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan kompensasiya (tovon) puli to'lanadi<sup>12</sup>.

Xulasa o'rnida shuni takidlash joizki qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarini kiyim-kechak moddiy vositalari bilan o'z vaqtida va sifatli ta'minlash ko'pgina ta'minot turlari ichida alohida ahamiyatga yega hisoblanadi shu sababli harbiy kiyim-kechaklarni ta'minotiga asosiy yetibor qaratish hamda ularni ruvojlangan davlatlar armiyasi singari doimiy ravishda takomillashtirib borishni bugungi kunning o'zi taqoza yetmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi kushinlarini tinchlik davrida kiyim-kechaklar bilan ta'minlash tartibi tugrisidagi 500-sonli buyrug'i.
2. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining "Harbiy kiyim-kechakda yurish QOIDALARI" to'g'risidagi 2021 yil 11 dekabrdagi 1040-sonli buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2019 yil 22-avgust kunidagi Ichki ishlar organlari xodimlarini, harbiy xizmatchilarni hamda ta'lim muassasalari kursantlarini kiyim-kechak mulk(buyum)lari bilan ta'minlash tartib qoidalari 247- sonli buyrug'i.
4. Oliy harbiy ta'lim muassasalari, serjantlar tayèrlash maktabi kursantlari va kiyim-kechak xizmati kichik mutaxassislari uchun kiyim-kechak ta'minoti asoslari bo'yicha o'quv qo'llanma. 2012 yil Samarqand OHAQMBYu kiyim-kechak ta'minoti kafedrasida katta o'qituvchisi podpolkovnik A.P. Murodov
5. "Harbiy ta'minot va harbiy xo'jalik" o'quv qo'llanma 2022 yil O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2019 yil 22-avgust kunidagi Ichki ishlar organlari xodimlarini, harbiy xizmatchilarni hamda ta'lim muassasalari kursantlarini kiyim-kechak mulk(buyum)lari bilan ta'minlash tartib qoidalari 247-sonli buyrug'iga